

WAYS TO IMPROVE THE TAXATION OF AGRICULTURAL PRODUCERS

Mardonov Mirzod Ochilovich

Student of the Banking and Finance Academy

Abstract: The article emphasizes that one of the most important issues is to further improve the system of taxation of agricultural producers, to assess the effectiveness of the benefits and preferences created for them.

Keywords: Taxes, agriculture, taxation system, fiscal function, single land tax, tax code, state budget, capital consumption.

O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi. 2020 yildan amaliyotga joriy etilgan O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tushunchasiga aniqlik kiritilib (57 modda), soliq solish maqsadlarida, qishloq xo'jaligi maxsulotini ishlab chiqaruvchi va uni birlamchi qayta ishlovchi, basharti bunday yuridik shaxsning jami daromadida o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlashdan olingan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadning ulushi soliq davridagi jami daromadning kamida 80 % ini tashkil etsa;

Yer uchastkalariga ega bo'lgan, bu yer uchastkalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lsa, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxs deb e'tirof etilishi belgilandi

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimida imtiyozli soliqqa tortish siyosati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu imtiyoz va qulayliklar tarmoqning rivojlanishida muhim fiskal omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun yaratilayotgan moliyaviy qulayliklar va soliq imtiyozlariga qaramasdan tarmoqda faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvoli bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lmoqda. Shuni inobatga olgan holda qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish, ular uchun yaratilgan imtiyoz va preferentsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash dolzarb ahamiyat kasb etuvchi mavzulardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan M.I.Alimardonov, T.S.Malikov, A.V.Vahobov, E.F.Gadoev, O.O.Olimjonov, A.Q.Qodirov, Q.Yax'yoev, B.E.Toshmurodova, A.M.Jumanov, A.Jo'raev, Sh. Toshmatov, N.X.Xaydarov va boshqalar O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etishga o'zlarining muhim hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlar iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishga yo'naltirilgan rag'batlantiruvchilik rolini kuchaytirish kabi vazifalarni bajaradi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etilishi, o'z navbatida ularni quyidagi soliqlar va yig'implarni to'lashdan ozod qildi:

daromad (foyda) solig'i;

qo'shilgan qiymat solig'i;

ekologiya solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yer solig'i;

yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;

mol-mulk solig'i;

obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar.

Yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblangan qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona to'lovlari, davlat boji, litsenziya yig'implari, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek aktsiz osti mahsulotlarga aktsiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi. Yagona yer solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Mazkur soliqning amalga kiritilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni tasarrufidagi yerlaridan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun

undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'iy nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi.

Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun hududlar kesimida (mutlaq miqdorda) bazaviy soliq stavkasi belgilanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkasining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi **Jo'qorg'i Kengesi** va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda **yer solig'i stavkalarini belgilaydi;**

Toshkent shahri bo'yicha esa Soliq kodeksida belgilangan yer solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida **0,7 dan 3,0 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritadi.

Yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha soliq stavkalarini **5 kun davomida** yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yer solig'ini hisoblash uchun mazkur soliq stavkalarini soliq to'lovchilarga yetkazishi shart.

Bunda yuridik shaxslar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha 2021-yil uchun soliq hisobotlarini 2021 yilning 10 yanvariga qadar soliq organlariga taqdim etadilar.

2021 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasiga nisbatan **30 foizdan ko'p oshmasligi lozim.** O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan soliq stavkalarini qo'llash bilan bog'liq alohida normalar Soliq kodeksiga o'tkazilmoqda.

Soliq kodeksining 429-moddasida nazarda tutilgan alohida ob'ektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasining kamaytiruvchi koeffitsientini 0,1 dan 0,25 ga oshirish yo'li bilan kamaytiruvchi soliq stavkasini bosqichma-bosqich bazaviy stavkaga yetkazish davom ettirilmoqda. Barcha turdagi chiqindilarni saqlash va ularni utilizatsiya qilish uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i uchun soliq solish ob'ektidan chiqarilmoqda. Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni joriy etish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari boshqa turdagi suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni kiritish

hisobiga kengaytirilmoqda. 2021-yilning 1-yanvarigacha faqatgina tomchilatib sugʻorish tizimidan foydalanayotgan soliq toʻlovchilar soliq imtiyozidan foydalanishi mumkin edi. 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab boshqa turdagi suvni tejaydigan sugʻorish (yomgʻirliq, diskret va boshqa (shu jumladan tomchilatib) texnologiyalarini joriy etilgan yerlar -suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan eʼtiboran besh yil muddatga yer soligʻini toʻlashdan ozod etilmoqda. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va toʻlash tartibi saqlab qolinmoqda. Soliq stavkalari 15 foizga, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun esa 30 foizga indeksatsiya qilinishini hisobga olgan holda, Soliq kodeksida belgilanmoqda. Bunda, soliq stavkalari 2020 yil qishloq xoʻjalik yerlarini sugʻorish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni oʻstirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xoʻjaliklari uchun yagona soliq stavkasi 1 kub.m. uchun 40 soʻm miqdorida belgilanmoqda.

Soliqqa tortishning ushbu tizimi xoʻjaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va toʻlash borasidagi ishlarni keskin kamaytirdi. Ilgari qishloq xoʻjalik korxonalarini oʻnlab turdagi soliqlar va yigʻimlarni toʻlashardi. Agar ayrim soliq turlarining har oyda va har yilning har choragida toʻlanishini hisobga oladigan boʻlsak, unda ayrim xoʻjaliklar davlat soliq organlariga soliqlar boʻyicha 30 dan ortiq hisob-kitoblarni taqdim etishi, 1 yilda ana shuncha toʻlov topshiriqnomalarini toʻldirishi kerak boʻlar edi. Endilikda esa xoʻjaliklar 1 yilda 1 marta bir turdagi soliq summasini hisoblab chiqishadi.

Qishloq xoʻjaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarga quyidagi muhim vazifalarni bajarish yuklatiladi:

Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar taʼminlab berish. Soliqlarning fiskal funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga koʻp jihatdan bogʻliq. Qishloq xoʻjaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish orqali qishloq xoʻjaligida yaratilgan milliy daromadning bir qismini davlat byudjetiga markazlashtiriladi. Xususan, mamlakat YaIM tarkibida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligining ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.

Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga koʻmaklashish. Oʻzbekiston Respublikasida qishloq xoʻjaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Bizga maʼlumki, qishloq xoʻjaligi kapital isteʼmoli boʻyicha boshqa tarmoqlardan raqobat muhitida zaif boʻgʻin hisoblanadi. Shuning uchun davlatimiz tomonidan qishloq xoʻjaligidagi mavjud kapitalni boshqa tarmoqlarga oʻtib ketishini oldini olish maqsadida tarmoqda faoliyat yurituvchi xoʻjalik

sub'ektlari uchun pasaytirilgan soliq yuki asosidagi soliqqa tortish tizimi amal qiladi va shuningdek, faoliyaning keng turlari uchun ko'plab imtiyoz va preferentsiyalar berilgan. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat printsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliq'larga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliq'larning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o'zgarmaydigan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonuni. O'RQ-599-son, 2019 yil 30 dekabr.

O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risidagi. O'RQ-589-son, 09.12.2019 yil.

www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.

www.lex.uz